

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!

AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI



YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!



Нурмуродов, Абдурашид

Қон ҳиди: роман / Абдурашид Нурмуродов – Toshkent:


“Yoshlar matbuoti”, 2022. – 416 b. ISBN: 978-9943-20-542-0

UO`K: 81.512.133-3

Q-53

Afg‘on tuprog‘ida jon olib jon bergan minglab vatan o‘g‘lonlarining, achchiq qismat egalarining taqdiri haqida bitilgan kitob – «Qon hidi» romani shu tarzda dunyoga keldi otasi va ukasining urushdan nogiron bo‘lib qaytgani, so‘ng onasining paxta maydoniga sepilgan zaharli doridan oq qon kasaliga chalinib vafot etishi yuragida ulkan bo‘shliq paydo qilgan inson bor dardini, iztirobini qog‘ozga to‘kdi. Qahramonlari unga og‘riqli kunlarida duch keldi, bir-birlarining yaxshi-yu yomon kunida hamnafas, hamdard bo‘ldi. So‘nggida esa... ularning hammasini yo‘qotdi.

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!



Shahodat, Ulug'.


Xaloskor Sulton Sayfiddin Qutuz: poMAH / Shahodat Ulug' – Toshkent:
“Akademnashr”, 2025. – 208 b. ISBN: 978-9943-6358-542-8-3

UO`K: 81.512.133-31

U-45

Necha ming yillik urush - mo'g'ullar istibdodiga qarshi ozodlik hurlik harakati Jaloliddin Manguberding bemisl jasorati bilan yakun topgan emas. Tarix qatida yashirin sirlar shu qadar ko'pki, vaqti kelib Manguberding jiyanlari - mamlukiy Misr taxtini egallagan Mahmud ibn Mamdud Sayfiddin Qutuz 1260 yili Ayn Jolot yonidagi jangda mo'g'ul lashkarini tamom yer tishlatib, ularning Islom yurtlariga bundan keyingi yurishlariga amalda barham berdi.

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!



Nurmurod Norqobilov

Quyoshi botmaydigan yurt [Matn]: Qissa-hikoya/ Nurmurod Norqobilov-Toshkent: "Pharos ambition" nashryoti MChJ, 2023-y.-192 bet.
ISBN: 978-9910-9462-5-7

UO`K: 821.512.133.31

N-79

Normurod Norqobilov nomi o'zbek kitobxonlariga begona emas. Adibning "Qora bo'ri", "Bekatladi oq uycha", "Qoyalar ham yig'laydi" nomli qissalari qiziqarli voqealari va ravon tili bilao'quvchilar mehrini qozongan.

Adibning "Qoyalar ham yig'laydi" nomli qissasida o'g'li ko'chki ostida qolgan Ernazar polvonning iztiroblari qalamga olingan. O'g'lining fojiasiga guvoh bo'lgan otaning xayolidan nimalar o'tadi? Bunday damlarda insonga taskin berib bo'ladimi? Ushbu to'plamdan o'rin olgan qissa va hikoyalar sizga ma'qul bo'lishiga ishonamiz.

AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!




Saida Zunnunova

Oydan tushgan qiz[Matn]: She`riy to`plam / Saida Zunnunova—
Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, MCh.J.2024-yil. 160 bet.ISBN: 978-9910-9449-8-7

**UO`K: 821.512.133-32
Z-93**

Zunnunova o‘zbek xotin-qizlari hayotini o‘rganish, ular turmushidagi mashaqqatli jihatlar va murakkabliklarga jamoatchilik e’tiborini jalb etish niyatida oila va muhabbat mavzuida bir qancha hikoya va qissalar yozdi. Uning „Gulbahor“ (1956), „Povest va hikoyalar“ (1957), „Gulxan“ (1959), „Do‘stlik“ (1960), „Qanot“ (1961), „Olov“ (1962), „Ko‘chalar charog‘on“ (1965), „Bo‘ylaringdan o‘rgilay“ (1972) singari nasriy kitoblarida xotin-qizlar hayoti haqqoniy badiiy ko'rinishini topdi.

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!



Pirimqul Qodirov

Amur Temur Siymosi: Pirimqul Qodirov-Toshkent“Turon zamin”nashiriyoti,M.CH.J.2023-yil 256.bet ISBN: 978-9910-9449-7-0


UO‘K: 821.512.133-311.6

Q-53

Ma'lumki Sohibqiron Amir Temur haqida ulug' bobomizning zamondoshlaridan tortib to shu kunga qadar ko'plab millat ijodkorlari va olimlari qalam tebratishgan. Ular orasida tarixiy manbalar asosida yozilgan hujjatli asarlari ham, badiiy to'qima ila boyitilgan badiiy asarlarni ham uchratish mumkin. Mazkur durdona asarlar Sohibqiron Amir Temurning ulug'vor nomini abadiyatga muhrlanishiga xizmat qilmoqda.

AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!



Stofa Kamol

Mash`um aybnoma; Stofa Kamol: qissa va hikoyalar /
"Ziyo nashr" nashriyoti, 2022.-160 b. ISBN: 978-9943-8520-9-9


UO`K: 821.18-32

S-87

Qo'lingizdagi to'plamda muyulishda o'tirib qovurilgan kashtan mag'zini sotadigan mayus chol haqidagi hikoya o'rin olgan. Guldek farzandini, turmush o'rtog'ini yo'qotgan qariya. Kuzning izg'irinli oqshomida ikki farzandini bag'riga bosib mudrayotgan ota... Shuningdek ushbu kitobdan Arno Gaygerning „Quvgindagi keksa qirol" nomli qissasi ham o'rin olgan.

AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!



Hamid G'ulom

Hayot so'qmoqlari: Hamid G'ulom – “Read book”
nashriyoti, 2024. – ISBN: 978-9910-9179-3-6

**UO'K: 821.512.133-31
G' 79**

Hamid G'ulomning mazkur to'plamiga davrning dolzarb muammolariga bag'ishlangan asarlari kiritilgan. "Tantilik", "Yangi direktor", "Bedorlik", "Hayot so'qmoqlari", "Mushkul savdo", "Hayrat" hikoyalarida jamiyatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan razil odatlar, nopoklik, davlat va xalq ishiga xiyonat, aldam-qaldam harakatlar fosh etiladi, chirkin sarqitlarga qarshi kurashiladi.

AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!

Annenkov Pavel

Million dollirlik xatolar:roman/Annenkov Pavel”Factor press” – Toshkent: 2024. – 272 b. ISBN: 978-9943-7253-8-6


UO‘K: 81.512.133-31

A 12

O'z tajribasini boshqalar bilan bo‘lishish haqiqiy tadbirkorning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Kitob muallifi Pavel Annenkov «Million dollarlik xatolar» asarida tadbirkorlikning eng muhim savollariga javob berishga va boshqalarning xatolarini takrorlamaslikka yordam beradi.



YANGI ADABIYOTLARNI O`QISHNI TAVSIYA QILAMIZ!



Hojakbar Shayxanov

Jodugarning Eri: Qissa va hikoyalar / Hojakbar Shayxanov

2024– 416 b. ISBN:978-9910-9317-5-8

UO`K: 821.512.133-344

Sh-18

Fantast yozuvchi va publisist, o'zbek ilmiy-badiiy fantastikasining asoschilaridan biri bo'lgan Hojiakbar Shayxov asarlarida ezgulik va yovuzlik, to'g'rilik va egrilik, bag'rikenglik va xudbinlik o'rtasidagi kurash ilmiy-fantastik shakllarda o'ziga xos yo'sinda aks ettirilgan. Voqealar silsilasi qanchalik g'ayritabiiy, qahramonlar esa qanchalik g'aroyib bo'lmasin, voqealar yerdagina emas, butun koinotda, qo'shni sayyoralarda ro'y bermasin, ular oxir-oqibat qay bir tomonlari bilan odamlarning bugungi hayoti va tashvishlariga bog'lanib ketgan.

AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI